



O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI O'QUVCHI- YOSHLARNI ESTETIK TARBİYALASHDAGI MUHIM AHAMIYATI

Rajabov Shaxzodbek Baxrom o'g'li

Urganch Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2024 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2024 yil

Nashr qilindi: 27-yanvar 2024 yil

KEY WORDS

Mumtoz musiqa, ashula, katta ashulalar, dostonlar, maqomlar, suvoralar, mumtoz yalla, audio, video, karaoke formatlar, og'zaki tarzlilik, an'anaviylik, professionallik, mualliflik, lokallik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek mumtoz musiqasining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'quvchi- yoshlarni estetik tarbiyalashdagi muhim ahamiyati, shuningdek, mumtoz musiqamiz muhitida o'quvchi-yoshlarni kamol toptirish, milliy musiqamizga mehr uyg'otish, ularda ona vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat, ota-bobolarimizdan faxrlanish kabi tuyg'ularni kamol topishtirish haqida tavsiyalar berilgan.

O'zbek xalqining qadimiy va boy mumtoz musiqasi asrlar oshibdiki, o'z qadr-qimmatini yo'qotmasdan millatning qudratli ma'naviyat manbai sifatida qadr topmoqda. Prezidentimizning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida" qarori milliy mumtoz musiqamizni bo'lgan e'tiborning muhim bir namunasi desak adashmagan bo'lamiz. Binobarin, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarni ajoyib an'alarini o'zida mujassam etgan mumtoz musiqamiz xazinasi hanuzgacha badiiy-estetik qiymatini yo'qotmasdan yoshlarni tarbiyalashda, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim vositalardan biri bo'lib kelmoqda.

Mumtoz musiqamizni o'rganish, uni amalda o'zlashtirish umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining milliy g'ururini shakllantirish uchun asosiy omillardan bo'lib qoladi. O'zbek mumtoz musiqasi haqida alohida mukammal ma'lumot berishning bosh maqsadi mazkur o'quv muassasalari o'quvchilarini o'zbekona musiqa an'analari, qadriyatlari ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shishdir. Ijodkor xalqimiz va uning namoyandalari tomonidan yaratilgan mumtoz namunalari - ashula, katta ashulalar, dostonlar, maqomlar, suvoralar, mumtoz yalla va turli shakllardagi cholg'u kuylari hamda ularning ijro uslublari va usullari yuzasidan ma'lumot hosil qilish, ular haqida mustaqil fikrni shakllantirish musiqa madaniyati fanining vazifalari hisoblanadi.

Zamonaviy o'spirinlarda o'z doiralarida mashhur ko'pincha badiiy jihatdan ahamiyatsiz bo'lgan musiqalarni tinglashni afzal ko'rish holatlari ko'paymoqda. Buning asosiy sabablari shundaki, o'spirinlarning musiqa bilan aloqasi, qoida tariqasida, o'z-o'zidan va nazoratsiz, o'rta maktab devorlaridan tashqarida sodir bo'ladi. Musiqiy dunyoqarashni to'ldirishning asosiy manbai internet bo'lib, unda ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'spirinlar uchun asosiy o'rinni egallaydi. Umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiya bugungi

kunda an'anaviy va zamonaviy uslublar hamohangligida olib borilmasa, o'quvchilarda mumtoz musiqaga bo'lgan ishtiyoqni, qiziqishni oshirish biroz mushkul. Musiqa madaniyati darslarini zamonaviy texnologik vositalar yordamida tashkil qilish, musiqa tinglash va jamoa bo'lib kuylash faoliyatlarida (*audio, video, karaoke formatlar*) ulardan samarali foydalanish o'quvchilarda mumtoz musiqaga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'quvchilarga yosh jihatidan o'z teng qurlari bo'lgan o'quvchilar ijrosidagi namunali ijrolarni tinglatish ham o'quvchilarning mumtoz musiqaga qiziqishlarini yanada yuksaltiradi. Musiqa o'qituvchisining musiqiy didi bunda katta ahamiyatga ega. Agar o'rganilayotgan mavzuga doir asarlar o'qituvchi ijrosida mukammal tarzda ijro qilindigan bo'lsa buning o'quvchilarga ijobiy ta'siri yanada yuqori bo'ladi. Musiqa madaniyati o'qituvchisi buning uchun o'zbek mumtoz musiqasi haqida chuqur bilimga ega bo'lib, milliy cholg'ularda ijro qilish malakasiga ega bo'lishi, uning mahalliy uslublaridagi o'ziga xos tomonlarini anglay olishi zarurdir.

Maktab musiqa ta'limida darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borish o'quvchilarning mumtoz musiqamiz haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishiga yordam beradi. Cholg'uchilar, xonandalar ansambllarini tashkil qilish, ularda har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar ishtirokidagi ansambllar faoliyatida mumtoz asarlar namunalaridan ijro qilinishi ularda o'zbek milliy mumtoz musiqasiga muhabbatini oshirishga yordam beradi. Qolaversa, o'rganilayotgan asarning o'z tengdoshlari tomonidan ijro qilinishi qolgan o'quvchilarda ham mumtoz musiqaga qiziqish paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Bu jarayonlarni olib borish an'anaviy uslubda, ya'ni ustoz-shogird an'anasiga muvofiq olib borilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Mumtoz musiqa- o'zbek xalqiga mansub, uning yetuk ustoz sozanda, bastakor, xonandalar tomonidan asrlar davomida yaratilgan ashulalar, maqomlar, suvoralar, yirik shakldagi musiqa san'ati namunalari (aytim-ashula va cholg'u musiqalari) ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Og'zaki tarzlilik- mumtoz musiqa xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsulidir. Ma'lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor va mumtoz asarlar omma(xalq) tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. O'rta asrlarda esa iste'dodli(yyetuk) sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Og'zaki an'anadagi mualliflik ijodi, ommaviy ijod singari, xalq hayoti va uning turli tomonlarini to'g'ri, aniq, badiiy jihatdan mukammal ifoda etishi, xalq didi va talabiga mos tusha olishi tufali uzoq yashaydi. Demak, mumtoz musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir.

2. An'anaviylik- mumtoz musiqa namunalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda. An'ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushuniladi.

An'anaviylik asarlarni og'zaki tarzda yaratilishi, ijro etilishi va tarqalishida, asarlarning matnida(kuy va she'r), ijro uslublarida namoyon bo'ladi. Mumtoz asarlarning musiqiy-poetik matni janrlarga ko'ra uzoq muddat davomida doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega (tasvir vositalari, parchalar, obrazlar tasvirida namoyon bo'ladi). Ijro etishda (ma'lum uslublarning saqlanishida) ham an'anaviylik mavjuddir.

3. Professionallik- mumtoz musiqa asarlari yaratilishi va ijro etilishi professional

sifatlar(keng diapazonli ovoz sohibi, mohir sozanda, musiqa va she'riyat qonuniyatlarini bilish va ularga rioya qilish, ma'lum voqea va ijrochilik maktabi an'analariga bo'ysunish)ga va mahoratga ega bo'lishdir. Ushbu musiqa namunalari o'ziga xos ijod va ijro jihatlari tufayli professionallikni talab etadi.

4. Mualliflik– mumtoz musiqa ijodiyoti yig'it sozanda va bastakor mahsulotidir, u individual-mualliflik(ma'lum shaxs tomonidan yaratilgan) ijodga kiradi. To'g'ri, aksariyat asarlarning mualliflari noma'lum, ammo ayrim asarlarning nomlari ijodkor va ijrochining ismlari bilan yuritilgan, masalan, Abdurahmonbegi, Karimqulbegi, Ashkullo saqili, Sodirxon hofiz Ushshog'i, Hoji Abdulaziz Ushshog'i, Suvorayi Komil va h.k. Ushbu asarlar o'zining kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro usullari mukammalligi bilan ajralib turadi. Ular «ustozshogird» ta'limotini o'tgan yetuk sozanda, xonanda, baxshi, shoir, katta ashulachi va maqomchilar tomonidan ijro etiladi.

5. Lokallik– mumtoz musiqa namunalari mahalliy ijro uslubiga egadir, shu tufayli Buxoro «*Shashmaqomi*», «*Xorazm maqomlari*» turkumi, Farg'ona-Toshkent maqomlari yoki katta ashula janri faqatgina Farg'ona vodiysida shakllangan, rivojlangan va tarqalgan yoki dostonchilik san'atida Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm ijro uslublari va an'analariga bo'linadi. Ularning har biri o'z mavqei, mazmuni, kuy tuzilishi va rivoji, ijrochilik uslublari bilan bir-biridan farq qiladi.

Xulosa.

O'zbek mumtoz musiqa san'atining durdonalari bitmas tuganmas va dunyodagi eng qadimiylardandir. Mana shu o'lmas mumtoz asarlar xalqimiz orasidagi professional va havaskor sozandalar, xonandalar ijrosida doimo yangrab, asrlardan-asrlarga, ustozlardan shogirdlarga o'tib, mukammallashib, sayqal topib, bizning davrimizgacha yashab keldi. Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, turli his-tuyg'ular uyg'otish xususiyatlarini batafsil tahlil qilganlar. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Darvish Ali Changiy kabi olimlar mumtoz musiqaning kishi ruhiyatiga ta'sirini o'rganishgan. Insonni ma'naviy kamol toptirishda tarbiyaviy ta'sirning barcha shakl, usul va vositalaridan samarali va unumli foydalanish lozim bo'ladi. Shuningdek, mumtoz musiqamiz muhitida o'quvchi-yoshlarni kamol toptirish, milliy musiqamizga mehr uyg'otish- ularda ona vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalarga sadoqat, ota-bobolarimizdan faxrlanish kabi tuyg'ularni kamol topishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev. R. O'zbek mumtoz musiqasi. Toshkent 2006 y.
2. Matyoqubov O.M. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish. – T.: O'qituvchi, 1983 y.
3. Xorazm suvoralarining janr, uslub va ijrochilik an'analari Rajabov Shaxzodbek Baxrom O'g'li Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Musiqiy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7980536>
4. Rajabov, S. B. O. G. L. (2022). Xorazm musiqa uslubining janr va ijro uslublari tavsifi. Science and Education, 3(5), 1090-1096.
5. R. S. B. (2023). The Role And Significance Of Khorazm Folk Music In The Formation Of Students'moral Culture. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(01), 42-46.

6. Rajabov, S. (2023). Mumtoz asarlarni o'rganishda xonandalik ovozi va uning kuylash texnikasi ustida ishlash. Молодые ученые, 2(11), 4-9.
7. Ugli, R. S. B. (2023). Gender Characteristics In Music Pedagogy. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11).



**INNOVATIVE
ACADEMY**